

**MIRIYNING “KO`RGACH” RADIFLI ISHQIY–FALSAFIY
G`AZALINING BADIY TAHLILI**

Esanova Maysara Abdullayevna

(Qarshi shahar 27-umumiy o`rta ta`lim maktabi

ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi

Osiyo Texnologiyalar Universiteti magistranti)

esanovamaysara1@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada Ochildimurod Ne`matilla o`g`li Miriyning “Junun aylasam ayb aylamang jamolini ko`rgach” g`azali o`rganilgan va g`azalga oid badiiy chizgilar berilgan. Miriyning mazkur g`azalining betakror jozibasi radif, qofiyadosh yoki ohangdosh so`zlar, obrazlar, ma`no va timsollar hamda badiiy vazifalari adabiy jihatdan tahlil qilingan. Shu bilan birga, g`azalning betakrorligini ko`rsatish uchun Hamid Oliyjonning “Na bo`lg`ay bir nafas” g`azali bilan qiyosiy solishtirmasi ham berilgan. Shuningdek, mumtoz sheriya-timozning XIX asrda ham g`azalnavislikning miriyona tarzidagi mohir ifodasi o`z aksini topgan.

Kalit so`zlar: G`azal, ishq, sevgi, qofiya, qofiyadosh so`zlar, ohangdosh so`zlar, radif, bayt, misra, obraz, mavzu, ma`no, timsol, badiiy obraz, badiiy vazifalar, tasavvufiy g`oyalar, g`azalnavislik, junun, shoir, mumtoz adabiyot.

АННОТАЦИЯ

В статье исследуется газель «Junun aylasam ayb aylamang jamolini korgach» Очилдимурода Нематиллы оглу Мири и приводятся художественные зарисовки этой газели. Уникальное очарование этой газели Мири анализируется с литературной точки зрения, включая рафиф, рифмованные или мелодичные слова, образы, смысл и символы, а также художественные функции. Одновременно проводится сравнительное исследование с газелью Хаида Олиумджона «Na bolgay bir nafas», чтобы показать уникальность этой газели. Кроме того, мастерство написания

газелей в стиле Мири нашло отражение в нашей классической поэзии даже в XIX веке.

Ключевые слова: Газель, любовь, рифма, рифмующиеся слова, мелодичные слова, радиф, двустишие, стих, образ, тема, значение, символ, художественный образ, художественные задачи, мистические идеи, написание газелей, страсть, поэт, классическая литература.

ANNOTATION

The article studies the ghazal “Junun aylasam ayb aylamang jamolini korgach” by Ochildimurod Ne'matilla oglu Miri and provides artistic sketches of the ghazal. The unique charm of this ghazal by Miri is analyzed from a literary perspective, including radif, rhyming or melodic words, images, meaning and symbols, and artistic functions. At the same time, a comparative comparison with Hamid Oliumjon's ghazal “Na bolgay bir nafas” is also given to show the uniqueness of the ghazal. Also, the skillful expression of ghazal writing in the Miri style was reflected in our classical poetry even in the 19th century.

Key words: Ghazal, love, rhyme, rhyming words, melodic words, radif, couplet, verse, image, theme, meaning, symbol, artistic image, artistic tasks, mystical ideas, ghazal writing, passion, poet, classical literature.

Kirish

O'zbek mumtoz adabiyotida g'azal janri ishq, sevgi, go'zallik va inson ruhining botiniy sirli qatlamlarini ochib berishda hamda o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi. G'azalning o'ziga xosligi uning an'anaviy qofiya va radifga asoslanishidadir. Qofiya va radifning o'zaro hamohangligi, ohangdoshligi g'azalning jozibasini ta'minlasa, ushbu hamohanglik va ohangdoshlik asosida badiiy va falsafiy mazmunning teran ifodalanishi uning mohiyatini yanada oshiradi. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada “Junun aylasam ayb aylamang jamolini ko'rgach” g'azali misolida ishqiy-falsafiy mazmun, obrazlar va badiiy ifodalar ko'ngilni va tafakkurni hayratga soladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Ochildimurod Miriy hayoti va adabiy merosini o'rganish bundan 99 yil avval adabiyotshunos Abdulxamid Majidiy (1904-1939)ning "Shoir Miriy" va "Miriyning boshqa asarlari to'grisida" nomli ikki maqolasi bilan boshlangan edi. Birinchi maqolada Miriyning tarjimai holi, o'zbek adabiyotida tutgan o'rni, o'zbek va tojik tillaridagi lirikasi, nasriy asarlaridan namunalar, Alisher Navoiyning Miriy ijodiga ta'siri hamda o'sha davr ijtimoiy hayoti haqida ma'lumot berilgan[1,34-38]. A.Majidiy ikkinchi maqolada ijodkorning "Kaki Kuhzod", "Gulnoma", "Choynoma" kabi liro-epik asarlari haqida so'z yuritib, ulardan parchalar keltiradi. Shuningdek, "Miriyning hozircha qo'lga kirmagan asarlari" sifatida "Anvori Suxayliy", "Ra'no va Zebo", "Chorsharbat" kabilar xususida to'xtaladi[2,43-46]. Shundan so'ng 1945 yil Olim Sharafiddinov nashrga tayyorlagan "O'zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi" kitobiga Miriy lirikasidan namunalar kiritildi"[3]. Bu o'sha adabiyot muxlislari uchun muhim ahamiyat kasb etdi. 1959 yilda nashr etilgan "O'zbek adabiyoti" kitobining III tomida Miriy hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot va shorning 9 ta g'azali e'lon qilindi[4]. Undagi bir o'zbekcha va bir tojikcha g'azal Miriyning keyinchalik nashr etilgan "Tanlangan asarlar" ida uchramaydi. Bu esa "O'zbek adabiyoti" kitobining qimmatini belgilaydi. 1961 yil Miriy hayoti va ijodi haqida ketma-ket ikkita maqola e'lon qilindi. Bulardan birinchisi M.Salohiddinov va S.Sirojiddinovlarning "Shoir Miriy haqida" maqolasidir[5]. Ikkinchisi, miriyshunos olim M.Mahmudovning "Shoir Miriy" maqolasi hisoblanadi[6,59-62]. Mazkur maqolada dastlab miriyshunoslik tarixiga nazar tashlanib, A.Majidiyning maqolalariga munosabat bildirilgan, so'ngra shoir tarjimai holi va ijodiga oid ma'lumotlar birmuncha batafsilroq berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada g'azalni tahlil qilishda *tashbeh* – biror narsa yoki hodisani boshqa bir narsaga qiyoslash, *metafora* - narsani to'g'ridan-to'g'ri boshqa narsa nomi bilan atash, yashirin o'xshatish, *mubolag'a* - biror holatni kuchaytirib, bo'rttirib tasvirlash, *tazod* - qarama-qarshi tushunchalarni yonma-yon qo'llash metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Miriyning “**Junun aylasam ayb aylamang**” g‘azali mumtoz poeziyaning go‘zal namunalaridan biridir desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Avvalambor g‘azalda “ko‘rmoq” fe‘lining radif sifatida qo‘llanilganining o‘zi uning jozibasini ta‘minlagan. Boz ustiga, radifdan oldingi qofiyadosh so‘zlarning jarangi g‘azalning qiymatini yanada oshirgan. Miriyning ushbu g‘azalining betakrorligini qiyoslash uchun buning isboti sifatida Hamid Olimjonning eng go‘zal va betakror “Bo‘lsam” radifli g‘azali va uning ham mazkur g‘azalga monand bo‘lgan qofiyadosh so‘zlarini qiyosiy misol sifatida keltirish mumkin. Aytish mumkinki, Miriy g‘azalidagi “Ko‘rgach” radifining har bir bayt so‘ngida kelishi - ma’shuqa chehrasining husni holati hamda undan kelib chiqadigan botiniy iforiy holat tasvirini mumtoz timsol bilan birga zamonaviy ifoda bilan uyg‘unlashtirgan. G‘azallarga yuzlanamiz:

Miriy “Junun aylasam ayb aylamang” [7]	H.Olimjon “Na bo'lg'ay bir nafas” [8]
Junun aylasam ayb aylamang <i>jamolini ko‘rgach,</i> Netong tutoshsa ko‘ngul yuzda xattu <i>xolini ko‘rgach.</i>	Na bo‘lg‘ay bir nafas men ham yonog‘ing uzra <i>xol bo‘lsam,</i> Labing yaprog‘idan tomganki go‘yo qatra <i>bol bo‘lsam.</i>
Sariri husnida mahublar emas senga monand, Uzor safhasida xol erur <i>misolini</i> ko‘rgach.	Butog‘ingga qo‘nib bulbul kabi xonish qilib tunlar, O‘pib g‘unchangni ochmoqliqqa tong chog‘i <i>shamol bo‘lsam.</i>
Xayoli birla hazin xotirim erur xursand, Bihisht vaslicha bordur oning <i>xayolini</i> ko‘rgach.	Bo‘yingni tarqatib olamni qilsam mastu mustag‘riq, O‘zimning san'atimga so‘ng o‘zim hayratda <i>lol bo‘lsam.</i>
Firoq dashtida yodi visoli bergay	Sening birla qolib bu mastu lol

jon, Ne nav' sharh etayin nogahon <u>visolini</u> ko'rgach.	olamda men yolg'iz, O'zimni ham topolmay, mayliga, oxir <u>xayol</u> bo'lsam.
Qoshini ko'rsamu qurboni jon ne tong qilsam, Tavofi Ka'bani topdim bukun <u>hilolini</u> ko'rgach.	Agar bog'ingda gul bo'lmoq mening-chun noravo bo'lsa - Ki, ming bor roziman qasringga hattokim <u>duvol</u> bo'lsam.
Dedimki, xolimu erkin uzoring ustida jono, Dediki, nuqtai joning durur <u>kamolini</u> ko'rgach.	Boshim hech chiqmasa mayli malomat birla bo'htondin, Raqiblar rashkiga ko'krak keray, mayli, <u>qamol</u> bo'lsam.
Qo'lungda tig' nedur qosh qilichi yetmasmu, Ki Miriy boshidur ilgingda xush bu <u>holini ko'rgach.</u>	Kezib sahroyu vodiylar yetishsam bir visolingga, Fido jonimni qildim yo'lingga, mayli, <u>uvol</u> bo'lsam.

Go'zal odatda, 5-12 baytdan iborat nazmiy janr bo'lib, har bir baytda asosiy mavzuga bog'liqlik jihatidan mustaqil fikr olinadi. Ushbu g'azalda:

Mavzu	<p>“Junun aylasam ayb aylamang”, ya'ni ishq, husn, taslimlik, ruhiy holat, ilohiylashtirilgan ishq. Junun — arabcha “jinnilik”, “aqlga zid ish”, “o'ta telbalik” yoki “ishq telbaligi” ma'nolarini ifodalaydi. Adabiyotda, xususan, tasavvufiy she'riyatda, ishq olovida o'zni unutish, majnunlik darajasiga yetishish (ishq jununi) sifatida qo'llaniladi. Ma'nodoshligi jinnilik, telbalik, esdan ozganlik, devonalik so'zlariga teng keladi.</p> <p>Qo'llanilishi va ma'nolari jihatidan: lug'aviy ma'noda - aqlning joyida bo'lmasligi, jinnilik holati; Adabiy yoki ishqiy ma'noda - oshiqning yor ishqida o'zligini yo'qotishi, shaydolik.</p>
--------------	--

	Misol sifatida Alisher Navoiyning “Junun vodiysig‘a moyil ko‘rarman joni zorimni” – ya‘ni, “jonimni telbalik (ishq) vodiysiga intilayotganini ko‘ryapman” misrasini keltirish mumkin. Junun ko‘pincha “ishq jununi”, “devonalik” kabi iboralar bilan birga qo‘llaniladi;
Qofiya	radifdan <u>oldingi ohangdosh so‘zlar, ya‘ni</u> “jamolini”, “xolini”, “misolini”, “xayolini”, “visolini”, “hilolini”, “kamolini”, “holini” kabilar;
Radif	“ <u>ko`rgach</u> ” so‘zi, ya‘ni har bir baytning ikkinchi misrasi shu so‘z bilan tugaydi.

Miriyning mazkur g‘azali yetti baytdan tarkib topgan bo‘lib, har bir bayt “ko‘rgach” radifi bilan yakunlanadi. Radif va qofiya she‘rning ritmik uyg‘unligini ta‘minlaydi, bu esa kitobxonda o‘ziga xos ohang va kayfiyat ulashadi. Har bir baytda sevgi, ishqning turli holatlari, ruhiy o‘zgarishlar va tasaffuviy g‘oyalar o‘z ifodasini topadi.

1-baytda – junun - ishqning olovli holati sifatida tasvirlanadi. Shoir ishqni aybga tortmaslikka chaqiradi. Chunki ma‘shuqaning yorqin jamoli ko‘rildimi, barcha kamchiliklar yo‘qoladi. “Tutoshsa” so‘zi bir tomondan, ko‘ngilning barqarorligini, vafosini ifodalasa, ikkinchi tomondan, jon shu bitta xolga ilashib turganligini ko‘rsatuvchi fe‘l ma‘nosida ham keladi.

2-baytda - ma‘shuqaning go‘zalligi ta‘kidlanadi: “sarir”- sof, ya‘ni yorug‘ yuz obrazi orqali sevgilining husni-jamoliga e‘tibor qaratiladi. “Xol” – bir tomondan kichik, ammo oraz go‘zalligini yanada oshiruvchi hamda hal qiluvchi “husniy detal” sifatida kelsa, ikkinchi tomondan “xol” ko‘rinishida oshiqning “qaro bo‘lgan”, lekin muqarrar, orziqib kutilgan taqdirni ifodalaydi.

3-baytda - muhabbatning ruhiy tomonlari ko‘rsatiladi. “Xazin” – “xazina” so‘zi xotirani, yashashga ishtiyoqni ta‘minlovchi o‘tmish, xayolda birga kechgan shirin lahzalar ma‘nosida kelsa, ikkinchi tomondan, botindan baxtiyor, zohirdan

esa ishqdan mamnun-u yuzdan faqat tushkun holatni ifodalaydi. Ma'shuqaning yuzini ko'rish baxt va jannatga tenglashtiriladi.

4-baytda - visolsiz ishq, diydorsiz oshiqlik mavzusi teran ifodalangan. Shoir ma'shuqasi bilan uchrashmasa ham, uning xayolini qalbida tutib, undan huzur-halovat topadi. Ma'shuqaning xayolini ko'rishning o'zi unga behishtdagidek rohat baxsh etadi. Bu ishqning eng pok, asliy, ruhiy mantig'idir.

5-baytda - yorning qoshi bir tomondan, yoyga qiyoslanib, qatl hukmini bajarsa-da, uni qabul qilish oshiq uchun eng ulug' ne'matki, aslida "jonimni o'z qo'lim bilan tutaman, qurbon qilsam ham ajab emas" deydi. Ikkinchi tomondan, qosh oy ma'nosida, uning hiloldek qoshini ko'rishni – go'yoki Ka'bani tavof qilishga muyassar bo'lish imkoniyatini berish tarzida baholanadi.

6-baytda - falsafiy obrazlar ifodasini topib, "nuqtayi jon", ya'ni xol jonning markazi, ruhning mohiyati sifatida ishlatiladi. Bunda ishq insonning shunchaki tashqi emas, balki botiniy, ruhiy mukammallik, insoniy butunlik sharti ekanligini bildiradi, natijada eng go'zal holat, jozibali timsol, botiniy va zohiriy mushtaraklik gavdalanadi.

7-baytda – ta'sir, ziyon yetkazuvchi halokat ramzlari – "tig'" va "qilich" go'zallikning kuchi va zarbasini ifodalaydi. Miriy ishqning oshiqni o'z izmiga solishini, tobelikni ifodalash ekan, ushbu ishq tig'ining boshiga tushishini ko'tarinkilik bilan kutib oladi.

G'azalda tasavvufiy motivlar yaqqol seziladi. Ishq, nafaqat, insoniy his-tuyg'ular, balki ruhiy kamolot va yetuklikning muddaosi sifatida ko'rsatiladi. Xususan, **6-baytdagi** - "nuqtayi jon" va "kamol" kabi tashbihlar tasavvufiy falsafani aks ettiradi.

G'azaldagi asosiy obrazlar va uning tahlili quyidagicha:

Obraz	Ma'no va timsol	Badiiy vazifa
Junun	Ishqiy telbalik	Oshiq holatini kuchaytirish
Xol	Yuzdagi nuqta, husn belgisi	Kichik nuqta orqali ulug' go'zallikni ifodalash

Hilol	Qosh, yuz yoki umumiy jamol	Ma'shuqaning nozikligi aks ettirish
Ka'ba, tavof	Sadoqat, sig'inish ramzi	Ishqni muqaddaslashtirish
Tig', qilich	Ma'shuqaning beparvoligi	Zabt va qotilligi (ishqiy o'lim obrazlari)

Xulosa va takliflar

Shoir an'anaviy g'azal obrazlariga qo'shimcha sifatida zamonaviy tasvirlardan foydalanadi. Metaforalar ishqni yangi, kengroq kontekstida tasvirlaydi. Bu esa g'azalda zamonaviy va an'anaviylik mushtarakligini ta'minlaganini ko'rsatadi. Natijada ushbu g'azal mumtoz adabiyotda an'analar bilan zamonaviy tafakkur uyg'unligining yorqin namunasi sifatida namoyon bo'ladi. Shoir mumtoz obrazlar (*xol, hilol, tig'*) bilan bir qatorda yangi semantik qatlamlarni (*xol - nuqtai jon, tig' - qosh qilichi, qosh - qurboni jon*) ham olib kirgan. G'azal ichida sadoqat, husniga taslimlik, ichki ruhiy burilishlar, ishqiy falokat va najot bir vaqtning o'zida mavjud. Bu nafaqat shoirning badiiy salohiyatini, balki madaniyatlararo fikrlash darajasini ham namoyon etadi.

Mazkur g'azal o'zbek adabiyotining boy madaniy merosi va zamonaviy badiiy yondashuvlarning ajoyib sintezidir. Shoir ishqni, nafaqat, tashqi go'zallik va hissiyot sifatida, balki ruhiy komillikka yo'l sifatida talqin etadi. Go'zallikning boy badiiy uslubi va chuqur mazmuni uni kitobxon uchun qardli qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Majidiy A. Shoir Miriy. // Maorif va o'qituvchi, 1927, 6-son, 34-38-betlar
2. Majidiy A. Miriyning boshqa asarlari to'grisida. //Maorif va o'qituvchi, 1927, 7-8-son, 43-46-betlar
3. O'zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi. III tom, - Toshkent: O'zdavnashr, 1945. - 704 b.
4. O'zbek adabiyoti. 4 tomlik. II tom. - Toshkent: O'zdavlat Badiiy adabiyot nashriyoti, 1959. -804 b.

5. Saloxiddinov M., Sirojiddinov S. Shoir Miriy haqida. // Kattaqo'urgon haqiqati. 1961 yil, 14 mart.

6. Maxmudov M. Shoir Miriy. // O'zbek tili va adabiyoti masalalari. 1961, 4-son, 59-62-betlar.

7.

https://wikisource.org/wiki/Junun_aylasam_ayb_aylamang_jamolini_ko%E2...

8. <https://tafakkur.net/bolsam/hamid-olimjon.uz>